

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XAIQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**2018-2019 O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MAKTABLARINING 9-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN
ONA TILI VA ADABIYOTI (RUS TILI VA ADABIYOTI),
MATEMATIKA, FIZIKA, TARIX, KIMYO, O‘ZBEK TILI (TA’LIM
O‘ZBEK TILIDA OLIB BORILMAYDIGAN UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MUASSASALARIDA), CHET (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ)
TILI VA JISMONIY TARBIYA FANLARIDAN YAKUNIY IMTIHON
MATERIALLARI VA METODIK TAVSIYALAR**



TOSHKENT-2019

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan. Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15-20% hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

ONA TILI VA ADABIYOT

Tuzuvchi:

G'. Hamroyev – Respublika ta'lim markazi Filologiya fanlar bo'limi boshlig'i.

O. Musurmonqulova – Respublika ta'lim markazi Filologiya fanlar bo'limi metodisti.

Taqrizchi:

D. Hoshimova – Piskent tumani 7-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

N. Xo'jamberdieva – Toshkent shahar Shayxontahur tumanidagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

MATEMATIKA

Tuzuvchilar:

N.Qarshiboyeva - Respublika ta'lim markazi metodisti.

N.Umarova - Toshkent viloyati Chirchiq DPI huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta oqituvchisi.

Taqrizchi:

G.Fozilova - Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 274-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi.

J.Abduraxmanova – Aniq fanlarga IDUM ning oily toifali matematika fani o'qituvchisi.

FIZIKA

Tuzuvchilar:

Z.Sangirova-RTM "Aniq va tabiiy fanlar" bo'limi fizika fani metodisti

U.Alimuhamedova Yunusobod tumani 9-IDUM fizika fani o'qituvchisi

M.Yuldashyeva- Sergeli tumani 6-IDUM oliy toifali fizika fani o'qituvchisi

Taqrizchilar:

V.Saidxo'jayeva-Toshkent viloyati Pskent tumani 5-maktab fizika fani o'qituvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq na'limi xodimi

N.Buranova Chilonzor tumani 178-IDUM fizika fani o'qituvchisi

TARIX

Tuzuvchilar:

O'.Jo'rayev – Respublika ta'lim markazi Ijtimoiy fanlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'lim boshlig'i.

N.Hakimov – Respublika ta'lim markazi Ijtimoiy fanlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi metodisti.

Taqrizchilar:

A.Zamonov – O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi bo'lim mudiri, t.f.d., (PhD).

Sh.Ergashev - O'zR FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, t.f.n., dotsent.

KIMYO

Tuzuvchilar:

G.Shoisaeva - RTM "Aniq va tabiiy fanlar" bo'limi kimyo fani metodisti

Taqrizchilar:

I.Xakimjonova – M.Ulug‘bek tumani 112-maktab kimyo fani o‘qituvchisi
D.Turdiyeva – Yunusobod tumani 288-maktab kimyo fani o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILI

Tuzuvchi:

F.Tolipova - Respublika ta’lim markazi o‘zbek tili fani metodisti.

Taqrizchi:

F.Aydarova -Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

РОДНОЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА

Составители:

Давлятов А.Ф. – методист русского языка и литературы Республиканского центра образования

Ковалева Н.С. – учитель русского языка и литературы школы № 5 Юнусабадского района г. Ташкент

Мирахмедова Д.Т. – преподаватель русского языка и литературы УзГУМЯ

CHET (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TIL

Tuzuvchi:

S.Qurbonaliyeva - Respublika ta’lim markazi Chet tillar bo‘limi metodisti.

Taqrizchi:

S.Maxmudova – XTV tasarrufidagi XTIDUM ingliz tili o‘qituvchisi.

M.Abdullayeva – A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI Chet tillar kafedrasini mudiri

A.Muhammedova-Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 51-maktabning fransuz tili o‘qituvchisi.

F.Shomurodova - Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 51-maktabning fransuz tili o‘qituvchisi.

D.Akbarova - Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 112-maktabning fransuz tili o‘qituvchisi.

R.Qodirova - Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 203-maktabning nemis tili o‘qituvchisi.

H.Mavlonova - Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 29-maktabning nemis tili o‘qituvchisi.

JISMONIY TARBIYA

Tuzuvchilar:

Ro‘ziyeva Y.A.–Respublika ta’lim markazi metodisti.

Rahimova Z.A.– Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 249-maktabning jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi.

Islaymova D. A. - Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 191-maktabning jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

Dehqonov G‘.G‘. -Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 29-maktabning jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi.

IX SINIF BITIRUVCHILARINING YAKUNIY ATTESTATSIYASI BO'YICHA TAVSIYA

IX sinf bitiruvchilari ona tili fanidan yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar. Bayon matnlari 3 ta variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn beriladi. Bir o'quvchi variantlardan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo'yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni bir (lozim bo'lsa ikki) marta o'qib eshittiriladi. O'quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar.

Bayon o'tkazishda o'quvchilar matn mazmunini qanday tushunganliklari, o'z fikr va tushunchalarini ijodiy va mustaqil ifodalaganlari, yozma nutq malakasi va savodxonligi sinab ko'riladi. Ijodiy bayon hajmi 9-sinf uchun 3,5 – 4 bet bo'lishi mumkin. Belgilangan vaqt 2 soat (120 daqiqa) bo'lib, 5 ballik tizimda baholanadi.

Tasviriy vositalardan foydalanib bayon yozishda o'quvchi matn mazmuniga bog'lab, mustaqil ravishda ayrim narsa, voqea-hodisalarni tasvirilaydi. Boshlab berish yo'li bilan bayon yozishda boshlanishi berilgan matni o'quvchilar ijodiy davom ettirib, uni to'liq matn shakliga keltiradilar.

O'quvchi bayon mazmun izchilligi va lisoniy qurilishi jihatidan talab darajasida bo'lishi bilan birga, savodli bo'lishi kerak. Shunigdek, bayonning reja asosida yozilishiga erishish zarur. Aniq tuzilgan reja o'quvchi bayonining izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi.

Ijodiy bayon uchun ikkita baho, yani, mazmuniga va savodxonligiga (5/5 tarzida) qo'yiladi.

Baho	Mazmuni	Savodxonligi
“5”	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yozma ishning rejasi mavzu mazmunini to'liq qamrab olsa; ✓ ish mazmuni mavzu, reja bilan to'liq mos kelsa; ✓ yozma ish mazmuni tizimli, uzluksiz ravishda yoritilgan bo'lsa; ✓ yozma nutqning leksik boyligi, so'zlarning o'z o'rnida ishlatilishi va sintaktik gap qurilishining har xilliligi bilan ajratilib tursa; ✓ yozma ishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hikmatli so'z, maqol va statik ma'lumotlardan o'rinli foydalangan hamda keltirilgan ma'lumotlar asosli bo'lsa; ✓ matnning mazmuni tuzilishining yagonaligi va ifodaliligi (badiiy tasvir, qahramonlarga tavsif kabi.) bilan ajralib tursa; ✓ yozma ishda adabiy til me'yorlariga amal qilgan, mavzu mazmuni hozirgi davr bilan bog'langan, umumiy xulosalangan bo'lsa. 	Matn husnixat bilan yozilib, 1 ta imlo, 1 ta ishoraviy xatoviy, 1 ta grammatik xatoliklar bo'lsa, bu 1/1/1 shaklda belgilanadi.
“4”	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yozma ish rejagi mos, mazmuni batafsil yoritilgan, ammo ayrim joylarida keltirilgan voqea-tasvirlarda noaniqliklar mavjud bo'lsa; ✓ yozma ish rejasi, matni mazmuni mavzuga (70 foizgacha) muvofiq kelsa; 	Bu yozma ishda xatolar soni quyidagicha bo'lganda: 2 \ 2 \ 3; 1 \ 3 \ 3; 0 \ 4 \ 3. Biroq grammatik xatolar

	<ul style="list-style-type: none"> ✓ milliy va umuminsoniy qadriyatlardan va hikmatli soʻz, maqol va oʻrinli foydalangan ammo mustaqil fikrlarni bayon qilishda ketma-ketligi qisman buzilgan boʻlsa ✓ yozma nutqning leksik, grammatik tuzilishini turlicha qoʻllagan boʻlsa; ✓ matnning mazmuni qurilishining yagonaligi va ifodaliligi bilan ajralib tursa; ✓ mavzu adabiy til meʼyorlariga amal qilgan, umumiy xulosalangan boʻlsa, ammo matn mazmunida mavzudan ozina chetga chiqishlar boʻlsa. 	soni 3 tadan, imlo xatolarining umumiy soni 2 tadan oshmasligi kerak
“3”	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yozma ish aniq yozilgan, ammo matndagi 3-4 faktlarda xatoliklar bor. ✓ yozma ishda belgilangan mavzudan chetlashlar(mavzuga aloqasi boʻlmagan maʼlumotlar) mavjud boʻlsa; ✓ yozilgan matnning mavzuga mosligi 70% dan kam boʻlgan holatlarda; ✓ matnning rejalarini yoritishda ketma-ketlik buzilsa; ✓ yozma nutqda leksik boyligi yoʻq, gap tuzish usullari bir xil boʻlsa; ✓ matnda soʻzlarni oʻrinsiz ishlatilgan holatlari mavjud boʻlsa; ✓ matning qurilishida bir xillik yoʻq, ifodali yoritilmagan boʻlsa. 	Bunda xatolar quyidagicha boʻlganda: 0 \ 5 \ 7; 1 \ 4-7 \ 4; 2 \ 3-6 \ 4; 4 \ 4 \ 4; 3 \ 5 \ 4;
“2”	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yozma ish mazmuni, rejaga umuman toʻgʻri kelmagan boʻlsa; ✓ faktlarda xatoliklar koʻp boʻlsa; ✓ matn mavzuga mosligi 50% ham qamrab olinmagan boʻlsa ✓ mavzuning rejalarini yoritishda ketma-ketlik butunlay buzilgan, mavzu bilan reja bir-biriga toʻgʻri kelmasa; ✓ yozma nutqni toʻgʻri tuzilmagan, mazmunida badiiy tasvirlar, qahramonlarga tavsiflar umuman keltirilmagan, ishning matnida qisqa bir xil tipdagi umumiy soʻzlarni qoʻllash asosida yoritilgan, soʻzlar oʻrinsiz ishlatilgan boʻlsa; ✓ matnda gap qurilishlar butunlay buzilgan boʻlsa. 	Xatolar soni turlicha boʻlishi mumkin: – yozma ishda ishoraviy xatoviy xatoliklari qancha boʻlishidan qatʼiy nazar, 5 ta ta imlo ik xato qilganda; – 8 yoki undan ortiq ishoraviy xatoviy xato, imlo xatoliklar boʻlganda; – imlo va ishoraviy xatoviy xatoliklar 8 ta, grammatik xatolar soni 5 ta boʻlganda.
“1”	Yuqoridan koʻrsatilgan mezonlardan past darajada yozilgan matnga qoʻyiladi.	7 va undan ortiq grammatik xatoliklar boʻlsa.

Eslatma:

1.Yozma ishni baholashda oʻquvchining mustaqil fikrlari, qiyoslash, tasvirlash uslubi, zamonga mos talqinlar, yozma nutq savodxonligi, gap qurilishi, yagona fikrlarining oʻrinli ishlatilishi, ijodiy yondashishiga qarab bir balga oshirib qoʻyilishi mumkin.

2.Agar matnning hajmi belgilangan betdan 1,5 yoki 2 baravar ortiq boʻlsa yuqorida koʻrsatilgan mezondan bittaga oshiriladi. Ammo “5” baho qoʻyiladigan yozma ish bundan mustasno. Masalan: “4” baho qoʻyiladigan yozma ishda xatolar sonini har biridan (yuqorida belgilangan imlo, ishora kabi.)1 taga, “3” qoʻyiladigan yozma

ishda 2 taga oshiriladi.

3. Matnning mavzusi umuman yoritib berilmagan bo'lsa, birinchi baho to'g'ridan-to'g'ri qoniqarsiz qo'yiladi.

Bayon matnlari uchun namuna:

VATAN TUYG`USI

O'shanda bahorning go'zal kunlaridan biri edi. Buvimlarnikiga bordim. Ayvonda uya qurgan ikki qaldirg'ochga ko'zim tushdi. Bolalari ham bor ekan. Ularning harakatlarini kuzata boshladim. Buvim esa qaldirg'ochlarga qiziqib qolganimni ko'rib, ular haqida so'zlay boshladi. Qaldirg'ochlar bu yerga in qurganlaridan so'ng yana ularning jajji bolachalari tug'ilganini, ota qaldirg'och azonlab uchib ketib, kech qaytishi, ona qaldirg'och uyasidan uzoqqa bormay, yaqin oradan bolalariga yegulik olib kelib berishi haqida aytib berdi. Ertasiga uyimga qaytdim.

Yoz boshlandi. Bir necha kunga yana buvimlarnikiga bordim. Qiziq, qaldirg'ochlar yo'q-ku. Uyachalari esa joyida. Buvim yozda qaldirg'ochlar boshqa o'lkalarga ketishini, ammo tez-tez kelib uyalarini ko'zdan kechirib ketishini aytdilar. Ammo uch haftadan buyon ulardan darak yo'q. Uyalariga esa musichalar kirib olishyapti ekan. Oradan ikki kun o'tgach, qiziq voqea yuz berdi.

Ertalab kun chiqar-chiqmas vaqtda qandaydir shovqindan o'yg'onib ketdim. Qarasam, qaldirg'ochlar uyasini ko'rishga kelibdi va u yerda begona qushning kirib olganini ko'rib, hamma yoqni boshiga ko'tarib chirillar edi. Musicha esa bu vajohatdan tezroq qutilish uchun tezda uchib ketdi. Buvim aytganidek, jonzotlarning oilasi, otasi, onasi, bolasi bo'lganidek, o'z uylari ham bor.

O'z uyini sevish, himoya qilish uni vatan deb bilish faqatgina odamzotga xos xususiyat emas.(180 ta so'z)

BAXT KALITI

Bir savdogar o'g'lini eng katta donishmandning huzuriga baxtning kaliti – sirini bilib kelish uchun jo'natibdi. Yigit sahroda qirq kun yo'l yuribdi va nihoyat, ulkan tog'ning tepasida haddan ziyod muhtasham bir qasrni ko'ribdi. U qidirgan Donishmand shu qasrda yashar ekan. Kutganiga zid o'laroq qasr avliyo odamning xilvat go'shasiga o'xshamasdi. Uning ichi odamga to'la edi: savdogarlar mollarini maqtab har tomon yugurishar, burchak-burchaklarda odamlar to'p-to'p bo'lib gurunglashar, sozandalarning kichik bir dastasi qandaydir nafis kuyni ijro etar, zalning o'rtasida esa kattakon stol, uning ustiga dasturxon tuzalgan, dasturxon esa bu yurtning eng noyob va tansiq taomlari, bag'oyat xushta'm noz-ne'matlariga to'la edi. Donishmand shoshmasdan mehmonlar bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Yigit navbati kelishini ikki soatcha kutib qoldi. Nihoyat, Donishmand yigitning nima maqsadda kelganini bildi, lekin hozir unga baxtning kaliti – siri nimada ekanini tushuntirib berishga vaqti yo'q ekanini aytdi.

Donishmand yigitga chiqib qasrni tomosha qilishni va ikki soatlardan keyin bu yerga – zalga qaytib kelishni buyurdi. «Sendan yana bir iltimosim bor, – dedi u yigitga ichiga ikki tomchi yog' solingan choy qoshig'ini uzatib. – Bu qoshiqni

o'zing bilan olib yur, faqat ehtiyot bo'l, ichidagi yog'i to'kilib ketmasin». Yigit qoshiqdan ko'zini uzmagani holda qasrni aylandi, uning zinalaridan tepaga ko'tarildi, pastga tushdi va, nihoyat, ikki soat o'tgach, Donishmandning ro'parasida yana namoyon bo'ldi.

«Xo'sh, qalay, – deb so'z qotdi Donishmand. – Koshonadagi fors gilamlari senga manzur bo'ldimi? Benihoya mirishkor bog'bonlar o'n yildan beri ko'zining oq-u qorasidek avaylab parvarish qilayotgan bog'dagi gullar va daraxtlar yoqdimi? Kutubxonadagi qadimiy kitoblar va nodir qo'lyozmalar-chi? » Xijolatdan qizarib ketgan yigit bularning hech qaysisini ko'rmaganini tan oldi, negaki, uning butun diqqat-e'tibori Donishmand unga ishonib topshirgan ikki tomchi yog'da bo'lgan ekan.

XASISLIK – YOMON ODAT

Hazrat Mavlono Jaloliddinrumiy masnaviysida xasislikning yomonligi haqida so'z yuritarkan, bir xasis odamning hikoyasini keltirdi. Xasisligi bilan o'z zamonasida dong taratgan bir badavlat odam bor ekan. Bu davlatmand odam eng xasis, eng ziqna odam sifatida mashhur bo'libdi. Bu xasis bir kun jomega jamoat bilan namoz o'qishga bordi. Jomeda namoz o'qiyotib, birdan : "Uydagi chiroqni o'chirganmidim, o'chirmaganmidim", – deb o'ylanib qoldi. Shu zahoti shoshilib turib, uyiga bordi. Eshikni taqillatdi. Xizmatchi : "Kim u ?", – deb ovoz berganda, xasis:

– To'xta, eshikni ochma! Xonamdagi chiroq yonib bol'sa, o'chirib qo'y, yog'i tugab qolmasin tag'in, – dedi.

Xizmatchi :

– Xo'p, afandim. Chiroqni ochirishni tushundim, ammo nega eshikni ochmayin, tushunmadim, – dedi.

Xasis odam :

– Eshikning oshiq-moshg'i yedirilmasligi uchun, – deb javob berdi.

Xizmatchi :

– Qoyil, afandim, ammo siz masjididan bu yerga kelguncha poyabzal eskirishini o'ylamadingizmi? – dedi

Xasis :

– Sen nima, tentakmisan? Meni yaxshi bilasan, masjididan kelguncha poyabzalimni eskirishiga qo'yamanmi? Poyabzalimni qo'ltig'imga qisib olib, yalangoyoq keldim, – dedi.

Topshiriqlar:

1. Matnga reja tuzing .
2. O'z fikr-mulohazalaringiz asosida ijodiy bayon yozing.

РОДНОЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА

9 класс

Итоговая аттестация по русскому языку в 9 классах проводится в письменной форме по рекомендуемым аттестационным материалам.

Цель проведения изложения – проверка умения учеников самостоятельно мыслить, а также орфографической и пунктуационной грамотности, уровня усвоения изученного материала и умения применять пунктуационные и орфографические правила на практике.

Примерный объем текста для подробного изложения 350 – 450 слов. Для изложений используются тексты, отвечающие нормам современного литературного языка, доступные по содержанию для данного возраста. В текстах для Итоговой аттестации изложений не должно быть незнакомых слов, много грамматических трудностей, перенасыщенности прямой и диалогической речью.

Из приготовленных трех запечатанных конвертов с текстами изложений один из учеников в присутствии всех учащихся выбирает один, о чем составляется акт.

Схема проведения итоговой аттестации изложения:

1. Вступительное слово учителя.
2. Чтение текста учителем.
3. Краткая беседа по выяснению понимания содержания.
4. Повторное чтение текста.
5. Самостоятельная работа учащихся над письменным изложением на черновике, затем переписывание начисто.

План изложения составляется по желанию ученика только для работы над черновым вариантом текста. На выполнение задания отводится 120 минут.

Основные критерии оценки изложения

<i>Балл</i>	<i>Критерии</i>
<i>Содержание и речь</i>	
«5»	Содержание работы полностью соответствует теме; Фактические ошибки отсутствуют; в изложении сохранено не менее 70% исходного текста; Содержание работы излагается последовательно; Текст отличается богатством лексики, точностью употребления слов, разнообразием синтаксических конструкций; Достигнуто стилевое единство и выразительность текста; Допускается 1 недочет в содержании
«4»	Содержание работы в основном соответствует теме, имеются незначительные отклонения от темы; Содержание изложения в основном достоверно, но имеются единичные фактические неточности; при этом в работе сохранено не менее 70% исходного текста; Имеются незначительные нарушения последовательности в изложении мыслей; Лексический и грамматический строй речи достаточно разнообразен; Стиль работы отличается единством и достаточной выразительностью; Допускается не более 2 недочетов в содержании и не более 3-4 речевых недочетов
«3»	Имеются существенные отклонения от заявленной темы;

	Работа достоверна в основном своем содержании, но в ней допущены 3-4 фактические ошибки. Объем изложения составляет менее 70% исходного текста; Допущено нарушение последовательности изложения; Лексика бедна, употребляемые синтаксические конструкции однообразны; Встречается неправильное употребление слов; Стиль работы не отличается единством, речь недостаточно выразительна; Допускается не более 4 недочетов в содержании и 5 речевых недочетов
«2»	Работа не соответствует теме; допущено много фактических неточностей; нарушена последовательность изложения мыслей; словарь крайне беден, работа написана короткими однотипными предложениями со слабо выраженной связью между ними; нарушено стилевое единство текста
«1»	Учащийся не справился с заданием
Грамотность	
«5»	Допускается 1 негрубая орфографическая или 1 пунктуационная или 1 грамматическая ошибка
«4»	Допускаются: 2\2\3 1\3\3 0\4\3 В любом случае количество грамматических ошибок не должно превышать трех, а орфографических — двух, однако, если из трех орфографических ошибок одна является негрубой, то допускается выставление отметки «4»
«3»	Допускаются: 0\5\7 1\4-7\4 2\3-6\4 4\4\4 3\5\4
«2»	Допускаются: 5 и более грубых орфографических ошибок независимо от количества пунктуационных; — 8 и более
«1»	Имеется по 7 и более орфографических, пунктуационных и грамматических ошибок

Примерные тексты изложений.

Изложение с элементами рассуждения.

В чём польза чтения?

В чём польза чтения? Верно ли утверждение, что читать полезно? Почему многие продолжают читать? Ведь не только для того, чтобы отдохнуть или занять свободное время.

Польза чтения книг очевидна. Книги расширяют кругозор человека, обогащают его внутренний мир, делают умнее. А ещё важно читать книги потому, что это увеличивает словарный запас человека, вырабатывает чёткое и ясное мышление. Убедиться в этом каждый может на собственном примере. Стоит только вдумчиво прочесть какое-нибудь классическое произведение, и вы заметите, как стало проще с помощью речи выразить собственные мысли, подбирать нужные слова. Читающий человек грамотнее говорит. Чтение серьёзных произведений заставляет нас постоянно думать, оно развивает логическое мышление. Не верите? А вы прочитайте что-нибудь из классики детективного жанра, например, «Приключения Шерлока Холмса» Конан Дойла. После прочтения вы будете соображать быстрее, ваш ум станет острее, и вы поймёте, что читать полезно и выгодно.

Ещё полезно читать книги потому, что они оказывают значительное влияние на наши нравственные ориентиры и на наше духовное развитие. После прочтения того или иного классического произведения люди порой начинают меняться в лучшую сторону.

(По материалам Интернета)

По данному тексту и самостоятельно составленному плану напишите изложение с собственными размышлениями о пользе чтения книг.

Опорные слова: классическое произведение, кругозор человека, нравственные ориентиры, духовное развитие.

Изложение по данному началу.

Учиться нужно всегда. Нужно при этом помнить, что самое благоприятное время для учения – молодость. Именно в молодости, в детстве, в юности ум человека наиболее восприимчив. Восприимчив к изучению языка, к математике, к усвоению просто знаний и развитию эстетическому

И вот тут я слышу тяжкий вздох молодого человека: какую же скучную жизнь вы предлагаете нашей молодёжи! Только учиться. А где же отдых, развлечения? Что же нам, и не радоваться?

Да нет же. Приобретение навыков и знаний – это тот же спорт. Учение тяжело, когда мы не умеем найти в нём радость. Надо любить учиться и формы отдыха и развлечения выбирать умные, способные также чему-то научить, развить в нас какие-то способности, которые понадобятся в жизни.

А если не нравится учиться? Быть того не может. Значит, вы просто не открыли той радости, которую приносит ребёнку, юноше, девушке приобретение знаний и навыков. Учитесь любить учиться.

(Д.С. Лихачёв)

По данному началу и самостоятельно составленному плану расскажите о том, почему необходимо учиться.

Опорные слова: благоприятное время, навыки и знания, восприимчивость, приобретать.

Изложение с элементами описания.

Там, где жил Пушкин.

В Пушкинском заповеднике три огромных парка: Михайловский, Тригорский и Петровский. Все они отличаются друг от друга. Тригорский парк пропитан солнцем. Такое впечатление остается от него даже в пасмурные дни. Свет лежит золотыми полянами на веселой траве, зелени лип, обрывах над Соротью и на скамье Евгения Онегина. Этот парк как будто создан для семейных праздников, дружеских бесед, для танцев при свечах под черными шатрами листьев. Он полон Пушкиным и Языковым.

Михайловский парк – приют отшельника. Это парк, где трудно веселиться. Он создан для одиночества и размышлений. Он немного угрюм со своими вековыми елями, высок, молчалив и незаметно переходит в столетние и пустынные леса.

Главная прелесть Михайловского парка – в обрыве над Соротью и в домике няни Арины Родионовны. Домик так мал и трогателен, что даже страшно подняться на его крыльцо.

Петровский парк хорошо виден из Михайловского. Он чёрен, сыр, зарос лопухами, в негоходишь как в погреб. В лопухах пасутся стреноженные лошади. На вершинах темных деревьев гнездятся хриплые галки.

Я вспоминаю леса, озёра, парки и небо. Это почти единственное, что уцелело здесь от пушкинских времен. Здешняя природа не тронута никем. Ее очень берегут. Когда понадобилось провести в заповедник электричество, то провода решили вести под землей, чтобы не ставить столбов. Столбы сразу бы разрушили пушкинское очарование этих пустынных мест.

(К.Паустовский)

Опорные слова и словосочетания: пропитан солнцем, приют отшельника, стреноженные, пушкинское очарование.

МАТЕМАТИКА

So‘z boshi

Mazkur metodik tavsiyada yakuniy atesttatsiyani o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan. Har bir imtihon topshiriqlari umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 5-, 9-sinf matematika o‘quv fani Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlari asosida tuzilgan.

2018-2019 o‘quv yilida 9-sinfni tugatgan o‘quvchilarning matematika fanidan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarini aniqlash maqsadida yakuniy atesttatsiya yozma usulda o‘tkaziladi.

Yakuniy atesttatsiyaning har bir topshirig‘ida ikkitadan variant bo‘lib, beshtadan misol va masalalar berilgan. Mazkur topshiriqlar 5,-9-sinfda o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish uchun xizmat qiladi.

Yakuniy atesttatsiyaga 3 astronomik soat ajratiladi.

Matematika fani chuqurlashtirib o‘tiladigan maktab (sinf) ma‘muriyati matematika fani o‘qituvchilari metodik birlashmasi qarori bilan 5,-9-sinf o‘quv dastulariga mos keladigan bittadan qo‘shimcha topshiriq kiritishlari lozim. Shuning uchun topshiriq yechimlarini izohlab yozishlariga qo‘shimcha (1 astronomik soat) vaqt beriladi.

Imtihon boshlanishidan oldin imtihon komissiyasining raisi 5 ta muhrlangan konvertlarni stol ustiga qo‘yadi.

Sinf o‘qituvchilaridan biri ushbu konvertlardan bittasini tanlaydi konvert muhri buzilmaganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng sinf o‘quvchilari oldida konvertni ochadi va ikki variantdan iborat topshiriqning raqamini e‘lon qiladi.

O‘qituvchi doskada topshiriqning ikkala variantini yozadi va chap qatorda o‘tirdan o‘quvchilar birinchi variantni, o‘ng qatordagi o‘quvchilar ikkinchi variantni yechishlarini tushuntiradi.

So‘ng o‘qituvchi har bir variant topshiriqlarini tushuntirib, yozma ish talablari bilan tanishtirdi.

Yozma ishga ajratilgan vaqt e'lon qilinib, doskada imtihonni boshlanish va tugash vaqti yozib qo'yiladi.

O'quvchilarning yozma ishlari 5 ballik baholash tizimi asosida baholanadi.

Yakuniy nazoratda o'quvchilarning matematikadan yozma ishlarini baholash mezon

T.r	Baholash mezon	Ball
1.	O'quvchi tomonidan bajarilgan har qanday to'g'ri yechim uchun; mantiqiy fikrlash va yechimni asoslashda ilmiy xatoga yo'l qo'yilmasa; javobga mos chizma to'g'ri bajarilsa, hamda yozma ishga qo'yilgan barcha talablarga mos kelsa	5
2.	O'quvchi tomoidan bajarilgan har qanday to'g'ri yechim va ayrim hisoblashda 1,2 ta juziy xatolik uchun	4
3.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda 2, 3 ta ilmiy xatoliklar va hisoblashda 3,4 xatolik uchun	3
4.	O'quvchi topshiriqni bajarishga uringan ammo hech qanday natijaga erishmagan bo'lsa	2
5.	O'quvchi tomonidan topshiriqlar ko'chirilgan, ammo hech qandan ish bajarilmagan bo'lsa.	1

1-bilet

- Hisoblang: $(1,4-3,5:1\frac{1}{4}):1,4+3,4:2\frac{1}{8}$
- Yer maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning bir tomoni ikkinchi tomondan 10 m ortiq, yuzasi esa 1200 m^2 ga teng. Yer maydonining atrofi devor bilan o'ralgan bo'lsa, uning perimetrini toping.
- Soddalashtiring: $\text{ctg}^2\alpha + \sin^2\alpha + \text{ctg}^2\alpha \cdot \sin^2\alpha$
- Romb ta'rifini va uning xossalarini keltiring. Romb diagonallarining xossasi haqidagi teoremani isbotlang.
- Teng yonli uchburchakning perimetri 55 sm. Uning yon tomonini asosiga nisbati 4:3 ga teng bo'lsa, uchburchakning tomonlarini toping.

2-bilet

- Hisoblang: $\frac{0,5^2 - 0,5}{0,4^2 + 2 \cdot 0,4 \cdot 0,1 + 0,1^2}$
- Ikki brigada bir ishni birgalikda 6 soatda bajaradi. Brigadalardan biri shu ishni bajarish uchun ikkinchisiga nisbatan 5 soat ko'p vaqt sarf qilsa, har bir brigada shu ishni alohida-alohida ishlab necha soatda bajaradi?
- Agar $\text{tg}\alpha - \text{ctg}\alpha = p$ bo'lsa, $\text{tg}^3\alpha - \text{ctg}^3\alpha$ ni hisoblang.
- To'g'ri burchakli uchburchak ta'rifini va uning barcha xossalarini keltiring. To'g'ri burchakli uchburchak gepotenuzasiga o'tkazilgan balandlik formulasini keltirib chiqaring.
- Parallelogrammning qo'shni tomonlari ayirmasi 5 sm, perimetri esa 38 sm bo'lsa, uning kichik tomonini toping.

3-bilet

1. Soddashtiring: $(\sqrt{21} + \sqrt{14} - 2\sqrt{35}) \cdot \frac{\sqrt{7}}{7} + \sqrt{20}$.

2. Ikkita poyezd ikki stansiyadan bir-biriga qarab bir vaqtda yo`lga chiqdi. Birinchi poyezdning tezligi 60,5 km/soat, ikkinchi poyezdning tezligi esa birinchi poyezd tezligidan 20% ga kam bo`lib, birinchi poyezd 96,8 km yo`l bosganda ular o`zaro uchrashgan bo`lsa, stansiyalar orasidagi masofani toping.

3. Soddashtiring: $\frac{\operatorname{tg}\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right)}{\cos(2\pi - \alpha)} \cdot \frac{\sin\left(\frac{3\pi}{2} + \alpha\right)}{\operatorname{tg}\left(\frac{3\pi}{2} - \alpha\right)}$

4. Kosinuslar teoremasini keltiring va isbotlang.

5. ABCD to`g`ri to`rtburchakning A burchagining bissektrissasi BC tomonni E nuqtadan kesib o`tadi. BE=4,5 sm va EC=5,5 sm bo`lsa, to`g`ri to`rtburchakning perimetri va yuzasini toping.

4-bilet

1. $-6m^2 - 12mn - 6n^2$ ifodani soddashtirib, $n=198$ va $m=-200$ bo`lganda qiymatini hisoblang.

2. Motorli qayiq ko`lda 18 km harakatlanishi uchun ketgan vaqtda, daryoda oqim bo`yicha 5 km va oqimga qarshi 12 km harakatlandi. Agar daryo oqimining tezligi 2km/soat bo`lsa, motorli qayiqning turg`un suvdagi tezligini toping.

3. Hisoblang: $\sin \frac{\pi}{8} \cdot \cos^3 \frac{\pi}{8} - \cos \frac{\pi}{8} \cdot \sin^3 \frac{\pi}{8}$.

4. Uchburchakka ichki chizilgan aylana ta`rifini keltiring va uning radiusini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.

5. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 14 sm va 20 sm bo`lib, yon tomoni 5 sm ga teng. Trapetsiyaning yuzini hisoblang.

5-bilet

1. Hisoblang: $\sqrt{\frac{82^3 - 18^3}{64} + 82 \cdot 18}$.

2. $y=x^2-6x+8$ parabola va $y+x=4$ to`g`ri chiziqning grafigini chizmasdan, ularning kesishish yoki kesishmasligini aniqlang.

3. Agar $\frac{2\sin x - \cos x}{2\cos x + \sin x} = 3$ bo`lsa, $\operatorname{tg} x$ ni toping.

4. Doira ta`rifini va uning qismlariga oid formulalarni keltiring. Doira yuzini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.

5. To`g`ri burchakli uchburchakning burchaklaridan biri 60° ga teng. Uning gipotenuzasi bilan kichik kateti ayirmasi 15 sm bo`lsa, uning gipotenuzasini toping.

6-bilet

1. Hisoblang: $\frac{9-4\sqrt{5}}{9+4\sqrt{5}} + \frac{9+4\sqrt{5}}{9-4\sqrt{5}}$.
2. $y=12-4x-x^2$ funksiyaning grafigini yasang hamda o`shish va kamayish oralig`ini ko`rsating.
3. $\frac{\sin 3\alpha}{\sin \alpha} - \frac{\cos 3\alpha}{\cos \alpha} = 2$ ayniyatni isbotlang.
4. Uchburchaklar o`xshashligining ta`rifini keltiring. Uchburchaklar o`xshashligining 1-alomatini isbotlang.
5. Parallelogrammning balandliklari 4 sm va 6 sm bo`lib, yuzasi 36 sm^2 bo`lsa, parallelogrammning perimetrini hisoblang.

7-bilet

1. $2^8+2^6+2^5+3\cdot 2^4$ ifodaning qiymatini 25 ga qoldiqsiz bo`linishini isbotlang.
2. $|6-3x| < 18$ tengsizlikning nechta butun yechimlari bor?
3. Agar $\cos \alpha = -\frac{12}{13}$, $\pi < \alpha < \frac{3\pi}{2}$ bo`lsa, $\operatorname{tg} \alpha$ ni toping.
4. Pifagor teoremasini keltiring va uni isbotlang.
5. Agar $\vec{a}(-1;0)$ va $\vec{b}(0;1)$ bo`lsa, $\vec{c} = -4\vec{a} + 3\vec{b}$ vektorning uzunligini hisoblang.

8-bilet

1. Soddalashtiring: $2\sqrt{3} - 5 - \frac{11}{\sqrt{12}-1}$.
2. $-4 \leq 5-3x < 1$ qo`sh tengsizlikning eng kichik va eng katta butun yechimlari yig`indisini toping.
3. Ayniyatni isbotlang: $\frac{1-\cos 2\alpha + \sin 2\alpha}{1+\cos 2\alpha + \sin 2\alpha} = \operatorname{tg} \alpha$
4. Trapetsiya yuzasini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
5. Teng yonli uchburchakning asosi 12 sm, asosiga tushirilgan balandlik esa 8 sm bo`lsa, uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

9-bilet

1. Hisoblang: $\left(\frac{1}{7}\right)^0 + 6 \cdot 2^{-3} + \left(\frac{2}{5}\right)^{-2}$
2. $y=3+4x-x^2$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.
3. Uchburchakning ikkita o`tkir burchagining sinuslari mos ravishda $\frac{4}{5}$ va $\frac{5}{13}$ bo`lsa, uchinchi burchagi kosinusini toping.
4. Parallelogramm ta`rifini va uning xossalari keltiring. Parallelogramm diagonallarining xossalariidan birini isbotlang.
5. Tomonlari 13 sm, 14 sm va 15 sm bo`lgan uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping.

10-bilet

1. Ifodani soddalashtiring: $\left(x - \frac{1+x^2}{x-1}\right) : \frac{x^2+2x+1}{x-1}$.
2. Ushbu $x-1 < -\frac{3}{x}$ tengsizlikning eng katta butun yechimini toping.

3. Agar $0 \leq \alpha \leq 90^\circ$, $\cos \alpha = 1 + a$ bo'lsa, $\sin \alpha$ ni toping, bunda "a"-qanday shartni qanoatlantirishi kerak?
4. Uchburchak o'rtta chizig'ining ta'rifini keltiring. Uchburchak o'rtta chizig'i haqidagi teoremani isbotlang.
5. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 10 sm va 16 sm bo'lib, uning o'tkir burchagi 45° ga teng bo'lsa, trapetsiyaning yuzasini hisoblang.

11-bilet


1. Ifodani soddalashtiring: $\left(\frac{2}{x^2-4} + \frac{1}{2x-x^2}\right) : \frac{1}{x^2+4x+4}$.
2. Tenglamani yeching: $|x^2 - 5x| = 6$
3. Agar $\operatorname{tg} \alpha = -2,4$ va $\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi$ bo'lsa, $\sin 2\alpha$ ni toping.
4. To'g'ri to'rtburchak ta'rifini va uning xossalari keltiring. To'g'ri to'rtburchak xossalariidan birini isbotlang.
5. Uchburchak tomonlari mos ravishda 7 sm, 8 sm va 10 sm. Bu uchburchakning eng katta burchagining kosinusini toping.

12-bilet

1. Ifodani soddalashtiring: $\frac{x^{0,5}}{\sqrt{x-5}} - \frac{5}{x^{0,5}+5} + \frac{x}{25-x}$.
2. $y = |x+2|$ funksiya grafigini yasang.
3. $\sin \alpha = 0,6$, $\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi$ bo'lsa, α burchakka qo'shni bo'lgan burchakning sinusi va kosinusini aniqlang.
4. Qavariq ko'pburchak ta'rifini va uning xossalari keltiring. Qavariq ko'pburchak diagonallari soni haqidagi teoremani isbotlang.
5. Teng yonli uchburchakning uchidagi burchagi 120° ga teng, tashqi chizilgan aylana radiusi 10 sm bo'lsa, uchburchak yuzini toping.

13-bilet

1. Hisoblang: $\frac{81^{0,4} \cdot 3^{0,5}}{9^{0,3} \cdot 27^{\frac{1}{6}}}$. 2. $\{a_n\}$ arifmetik progressiyada $a_2 + a_6 = 44$ va $a_5 - a_1 = 20$ bo'lsa, a_{100} ni hisoblang.
3. Agar $\operatorname{tg}\left(\frac{\pi}{4} + \alpha\right) = 3$ bo'lsa, $\operatorname{tg} \alpha$ ni toping.
4. Trapetsiya o'rtta chizig'ining ta'rifini keltiring. Trapetsiya o'rtta chizig'i haqidagi teoremani isbotlang.
5. ABC to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi 3 sm, AB gipotenuzasi 15 sm ga teng. AK va BK ni toping.



14-bilet

1. Kasrni qisqartiring: $\frac{a^3b - ab^3}{a^2 + ab - 3a - 3b}$.
2. $\{b_n\}$ geometrik progressiyada $q=2$ va $S_4=5$ ekani ma'lum bo'lsa, b_2 ni toping.
3. Hisoblang: $8\cos\frac{\pi}{9}\cos\frac{2\pi}{9}\cos\frac{4\pi}{9} - 1$. Uchburchakka tashqi chizilgan aylana ta'rifini keltiring va uning radiusini topish formulasini keltirib chiqaring.
5. $\vec{a}(2; -5)$ va $\vec{b}(-10; y)$ vektorlar berilgan. y ning qanday qiymatlarida vektorlar o'zaro perpendikulyar bo'ladi?

15-bilet

1. b ning qanday qiymatida: $\overline{3b32566}$ yetti xonali son 9 ga qoldiqsiz bo'linadi?
2. Agar $\begin{cases} a_4 + a_{11} = 0,2 \\ a_9 - a_5 = 2,4 \end{cases}$ ekani ma'lum bo'lsa, arifmetik progressiyaning birinchi hadini va ayirmasini aniqlang.
3. Agar α , β va γ uchburchakning burchaklari bo'lsa, $\sin(\alpha + \beta) = \sin\gamma$ ekanini isbotlang.
4. Aylanaga o'tkazilgan urinma va kesuvchining ta'rifini keltiring. Aylanaga o'tkazilgan urinma va kesuvchi haqidagi teoremani isbotlang.
5. Uchburchakning o'rta chiziqlari 2:3:4 nisbatda, uchburchak perimetri esa 54 sm bo'lsa, uchburchak tomonlarini aniqlang.

16-bilet

1. n ning barcha natural qiymatlarida $9n^2 - (3n-2)^2$ ifoda 4 ga qoldiqsiz bo'linishini isbotlang.
2. Agar geometrik progressiyada $b_3=12$ va $b_5=48$ ekani ma'lum bo'lsa, geometrik progressiyaning dastlabki oltita hadining yig'indisini aniqlang.
3. Agar $\text{ctg}\alpha=0,125$ bo'lsa, ifodaning qiymatini toping.
4. Uchburchaklar $\frac{\sin^2\alpha + \sin\alpha \cdot \cos\alpha}{\cos^2\alpha + \sin\alpha \cdot \cos\alpha}$ o'xshashligining ta'rifini keltiring. Uchburchaklar $\frac{\sin^2\alpha + \sin\alpha \cdot \cos\alpha}{\cos^2\alpha + \sin\alpha \cdot \cos\alpha}$ o'xshashligining 2 - alomatini isbotlang.
5. AB va CD vatarlar E nuqtada kesishadi. Agar $AE=3$ sm, $BE=36$ sm, $CE:DE=3:4$ bo'lsa CE va DE ni aniqlang.

17-bilet

1. Agar o'ylangan songa 20 ning 80% i qo'shilsa, o'ylangan sonning 80% ni 70 dan ayirmasiga teng son hosil bo'ladi. O'ylangan sonni toping.
2. Agar $b_2=-4$ va $b_3=\frac{4}{3}$ bo'lsa, cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig'indisini toping.
3. Ifodani soddalashtiring: $\frac{\cos 18^\circ \cdot \cos 28^\circ + \cos 108^\circ \cdot \sin 208^\circ}{\sin 34^\circ \cdot \sin 146^\circ + \sin 236^\circ \cdot \sin 304^\circ}$.
4. Parallelogramm yuzasini hisoblash formulalarini keltiring va ulardan birini isbotlang.

5. To'g'ri burchakli uchburchakka aylana ichki chizilgan, urinish nuqtasi gipotenuzani 2 sm va 3 sm li kesmalarga ajratadi. Uchburchakning katetlarini toping.

18-bilet

1. Sinfda 15 ta qiz bola va 10 ta o'g'il bola bor. Qiz bolalar butun sinfnig necha foizini tashkil qiladi?
2. Arifmetik progressiyada uchinchi va beshinchi hadlar yig'indisi 12 ga teng. Progressiyaning dastlabki yettita hadi yig'indisini toping.
3. Agar $\alpha=46^\circ$ va $\beta=16^\circ$ ekanligi ma'lum bo'lsa, $\sin(\alpha+\beta)-2\sin\beta\cdot\cos\alpha$ ifoda 21,5 dan qanchaga kichik ekanini toping.
4. Uchburchaklar o'xshashligining ta'rifini va o'xshash uchburchaklar xossalari keltiring. Shu xossalardan birini isbotlang.
5. Parallelogrammning o'tmas burchagidan tushirilgan balandliklari orasidagi burchagi 25° ga teng. Parallelogramm burchaklarini toping.

19-bilet

1. a; 5,4; -2,2 sonlarning o'rta arifmetigi 1,2 ga teng. a ni toping.
2. Ikkita natural sonning ko'paytmasi 273 ga teng. Agar ulardan biri ikkinchisidan 8 ga ortiq bo'lsa, bu sonlarni toping.
3. Agar $\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi$ bo'lsa, $\frac{\sin \alpha \cdot \cos^3 \alpha}{\operatorname{tg}^5 \alpha}$ ifodaning qiymatini nol bilan taqqoslang.
4. Vektor haqida tushuncha. Vektorning skalyar ko'paytmasini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
5. To'g'ri burchakli uchburchakning burchaklardan biri 60° , gipotenuza va kichik katetning yig'indisi esa 42 sm. Uchburchakning yuzini toping.

20-bilet

1. 459 sonni 1:2:6 nisbatdagi uchta sonning yig'indisi shaklida ifodalang. Katta va kichik qo'shiluvchilar ayirmasini toping.
2. Tenglamaning ildizini toping: $\left(18\frac{1}{3} + x\right) : 3\frac{1}{7} = 7$
3. $2\cos x = \sqrt{3}$ tenglik to'g'ri bo'ladigan x ning ikkita qiymatini aniqlang.
4. Uchburchak yuzasini hisoblash formulalarini keltiring. Uchburchak yuzasini uning ikki tomoni va ular orasidagi burchagi bo'yicha hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
5. ABCD to'g'ri burchakli trapetsiyada katta yon tomoni $3\sqrt{2}$ sm $\angle D=45^\circ$. Balandlik AD asosini teng ikkiga bo'ladi. Trapetsiyaning yuzini toping.

21-bilet

1. Inflyatsiya natijasida mahsulot narxi 25% ga orttirildi. Ma'lum muddat o'tgach talab kam bo'lgani uchun uning narxi 10% ga pasaytirildi. So'nggi narx dastlabki narxdan necha foiz ortiq?
2. Tenglamani yeching: $\frac{2x-3}{6} + x = \frac{2x-1}{3} - \frac{4-x}{2}$.

3. Ifodani soddalashtiring: $\frac{\cos(\alpha - \beta) - \cos \alpha \cdot \cos \beta}{\cos(\alpha + \beta) + \sin \alpha \cdot \sin \beta}$.

4. Aylanaga ichki chizilgan burchak ta'rifini keltiring. Aylanaga ichki chizilgan burchakni hisoblash haqidagi teoremani isbotlang.

5. Uchburchakning ikki tomonlari 6 cm va 3 cm, ular orasidagi burchak 60° ga teng. Uchburchakning uchunchi tomoniga tushirilgan balandlikni toping.

22-bilet

1. Oralaridagi masofa 120 km bo'lgan kater va teploxod bir-biriga qarab harakatlanmoqda. Teploxodning tezligi 50km/soat bo'lib, kater tezligi teploxod tezligidan 40% ga kam bo'lsa, ular necha soatdan keyin uchrashadi?

2. $y = x^2 + px + q$, funksiyasining grafigi A(2;-5) va B(-1;16) nuqtalaridan o'tsa, p va q koeffitsiyentlarni aniqlang.

3. Hisoblang: $\frac{tg \frac{9\pi}{16} - tg \frac{5\pi}{16}}{1 + tg \frac{9\pi}{16} \cdot tg \frac{5\pi}{16}}$.

4. To'g'ri burchakli uchburchakning o'xshashlik alomatlarini keltiring va ulardan birini isbotlang.

5. Perimetri 60 sm bo'lgan parallelogrammning, tomonlari 2 va 3 sonlarga proporsional. Agar parallelogrammning o'tmas burchagi 120° bo'lsa, o'tkir burchak qarshisida yotgan diagonal uzunligini aniqlang.

23-bilet

1. Yig'indisi 81 ga teng bo'lgan uchta ketma-ket kelgan toq sonlarni toping.

2. Agar $a+b+c=0$ bo'lsa, $ax^2+bx+c=0$ tenglamaning ildizlarini toping.

3. Hisoblang: $\frac{2 \sin \frac{\pi}{12} \cos \frac{\pi}{12}}{\cos^2 \frac{\pi}{8} - \sin^2 \frac{\pi}{8}}$

4. Qavariq ko'pburchak ichki burchagining ta'rifini keltiring. Qavariq ko'pburchak ichki burchaklari yig'indisi haqidagi teoremani isbotlang.

5. $\vec{a} (4; 4\sqrt{3})$ va $\vec{b} (8\sqrt{3}; 8)$ vektorlar orasidagi burchakni toping.

24-bilet

1. To'rtta ketma-ket natural sonlar berilgan. Chetki hadlar yig'indisining ikkilanganidan o'rta hadlar musbat ayirmasi ayrilsa, 45 hosil bo'ladi. Shu sonlarni toping.

2. $x^2 - 9x - 7 = 0$. Tenglamani yechmasdan $x_1^2 + x_2^2$ ifodaning qiymatini toping.

3. Agar $\cos \frac{\alpha}{2} + \sin \frac{\alpha}{2} = \frac{1}{2}$ bo'lsa, $\sin \alpha$ ni toping.

4. Aylana ta'rifini va aylana yoyining uzunligini hisoblash formulalarini keltiring. Burchakning radian o'lchovi. Aylana uzunligining, uning diametriga nisbati haqidagi teoremani isbotlang.

5. Teng yonli uchburchakning asosi 6 sm bo'lib, asosga tushirilgan balandligi 4 sm ga teng bo'lsa, uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

25-bilet

1. Agar $\frac{x-3y}{y} = 12$ ekanligi ma'lum bo'lsa, $\frac{2x+y}{y}$ kasrning qiymatini toping.
2. Tenglamani yeching: $\sqrt{8-7x} = x$.
3. $\cos \alpha$ ni $\sin \frac{\alpha}{2}$ orqali ifodalang.
4. Dekarat koordinat sistemasida berilgan vektorlar ustida amallar. Vektorlar orasidagi burchakni topish formulasini keltirib chiqaring.
5. ABC uchburchakning B burchagi 90° ga teng. A va C burchaklarning bissektrisalari O nuqtada kesishadi. AOC burchakni toping.

26-bilet

1. Agar $a \leq b \leq 0$ va $d > c > 0$ bo'lsa, $\sqrt{\frac{0,49a^4b^6c^8}{400d^{10}c^{16}}}$ ifodani soddalashtiring.
2. Kvadrat tenglamani yeching. $\frac{x^2 - 2x}{x - 1} - \frac{2x - 1}{1 - x} = 3$.
3. Agar $\cos \alpha = -0,6$ bo'lsa burchakka qo'shni burchakning kosinusini aniqlang.
4. Ikki to'g'ri chiziqning parallelizm alomatlarini keltiring va ulardan birini isbotlang.
5. To'g'ri to'rtburchakning yuzi $12\sqrt{3}$ sm²ga, diagonallar orasidagi burchak esa 120° ga teng. To'g'ri to'rtburchak tomonlarini toping.

27-bilet

1. Kasrni qisqartiring: $\frac{x^2 - 100}{x^2 - 7x - 30}$.
2. Proporsiyaning noma'lum hadini toping: $6,9:4,6 = (2x+5):5,4$.
3. To'g'ri burchakli uchburchakning o'tkir burchaklari tangenslarining ko'paytmasini toping.
4. Qavariq to'rtburchak ta'rifini va uning xossalarini keltiring. To'rtburchak diagonallari va ular orasidagi burchak yordamida, uning yuzini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
5. Teng yonli uchburchakning yon tomoni asosidan ikki marta katta va uning perimetridan 12 sm ga qisqa, uchburchakning perimetrini toping.

28-bilet

1. Qisqarmaydigan oddiy kasrning maxraji suratidan 4 ga ortiq bo'lib, uning suratini 2 ga, maxrajini esa 21 ga orttirilsa, bu kasr $\frac{1}{4}$ ga kamayadi. Bu kasrni toping.
2. m ning qanday qiymatida $3x^2 - mx - 6 = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri -2 ga teng bo'ladi?
3. Ifodani soddalashtiring: $\sin(\alpha - \beta) + \sin\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) \sin \beta$.
4. Aylana vatari va uning xossalarini keltiring. O'zaro kesishuvchi ikki vatarning xossasi haqidagi teoremani isbotlang.

5. ABC to'g'ri burchakli uchburchakda ($\angle C=90^\circ$) CD va AE bissektrissalar O nuqtada kesishadi, $\angle AOC=105^\circ$. Uchburchakning o'tkir burchaklarini toping.

29-bilet

1. Ko'paytuvchilarga ajrating: $b^2+ab-2a^2-b+a$.
2. Tenglamani yeching: $1,5-\left(\frac{x}{4}+\frac{1-2x}{6}\right)=2$.
3. Agar $\sin\alpha=-0,75$; $\pi<\alpha<\frac{3\pi}{2}$ va $\sin\beta=0,8$; $0<\beta<\frac{\pi}{2}$ bo'lsa, $\sin(\alpha-\beta)$ ni hisoblang.
4. Uchburchak o'xshashligining ta'rifini keltiring. Uchburchaklar o'xshashligining uchinchi alomatini isbotlang.
5. Aylana asoslari 3 sm va 6 sm bo'lgan to'g'ri burchakli trapetsiyaga ichki chizilgan. Trapetsiyaning katta yon tomonini toping.

30-bilet

1. a va b ning barcha qiymatlarida $a^2+4ab+5b^2+2b+1$ ko'phadning qiymatlarini manfiy bo'lmasligini isbotlang.
2. Tenglamani yeching: $3\cdot(x-2)+x=-(-4x+16)+10$.
3. Agar $\alpha - \beta = \frac{\pi}{2}$ bo'lsa, $\frac{\sin \alpha - \sin \beta}{\cos \alpha + \cos \beta}$ ifodaning qiymatini toping.
4. Umumlashgan sinuslar teoremasini keltiring va uni isbotlang.
5. Rombning diagonallaridan biri 6 sm, yuzi esa 24 sm^2 bo'lsa, uning perimetrini toping.

31-bilet

1. $\sqrt[3]{2001 \cdot 1997 - 1998 \cdot 2000 + 9}$ ni hisoblang
2. Tenglamani yeching: $\frac{x^3+8}{x+2} = 2x + 6$.
3. Arifmetik progressiyaning uchinchi va to'qqizinchi hadlari yig'indisi 8 ga teng. Shu progressiyaning dastlabki o'n bitta hadi yig'indisini toping.
4. O'tkir burchak sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi ta'riflari.
5. Trapetsiyaning uzunligi 20 sm ga teng o'rta chizig'i uning diagonali bilan ikki qismga bo'lingan. Bu qismlardan biri ikkinchisining 25 % tashkil qiladi. Trapetsiya asoslarini toping.

32-bilet

1. Hisoblang $\left(\frac{2-b}{b-1} + 2 \cdot \frac{a-1}{a-2}\right) : \left(b \cdot \frac{a-1}{b-1} + a \cdot \frac{2-b}{a-2}\right)$ $a = \sqrt{2} + 0,8$ va $b = \sqrt{2} - 0,2$?
2. Tenglamani yeching: $(1,7 : \left(1\frac{2}{3}x - 3,75\right)) : \frac{8}{25} = 1\frac{5}{12}$
3. Sportchi birinchi minutda 400 m, keying har bir minutda avvalgisiga qaraganda 5 m dan kam yugurdi. Bir soatda qancha masofaga yugurgan ?
4. (b_n) геометрик прогрессияда $b_4 - b_2 = 24$ va $b_2 + b_3 = 6$ бўлса, b_1 нинг қийматини топинг.
5. Parallelogrammning yuzu 30, balandliklari 4 va 6 ga teng. Parallelogrammning perimetrini toping.

33-bilet

1. Qo'ziqorin quritilganda o'z og'irligining 80% ini yo'qatadi. 1 kg qo'ziqorin o'qi olish uchun necha kg qo'ziqorinni quritish kerak ?

2. Tenglamani yeching:
$$\frac{2}{x+2} - \frac{2}{4-x} = 1 - \frac{12}{x^2-2x-8}$$

3. Soddashtiring
$$\left(\frac{2}{\sqrt{3}-1} + \frac{3}{\sqrt{3}-2} + \frac{15}{3-\sqrt{3}}\right) \cdot (\sqrt{3}+5)^{-1}$$

4. Ko'pburchaklar o'xshashligini ta'riflang. Uchburchaklar o'xshashligining alomatlaridan birini isbotlang.

5. Rombda ichki chizilgan aylananing radiusi 5 ga teng. Rombning burchaklaridan biri. Rombning katta diagonali uzunligini toping.

34-bilet

1. Sinf o'quvchilaridan 12 % yozma ishni imuman bajarmadi, 32 % xatolar bilan qolgan 14 tasi esa to'g'ri bajardi. Sinfda nechta o'uvchi bor ?

2. Tenglamalar sistemasining barcha haqiqiy ildizlarini toping:

$$\begin{cases} x+y+z=2 \\ 2xy-z^2=4. \end{cases}$$

3. $\frac{12ab-9b^2}{9b^2-16a^2}$ kasrni qisqartiring ?

4. Muntazam ko'pburchakning tomonlari bilan tashqi va ichki chizilgan radiuslarini bog'lovchi formulalarni keltirib chiqaring.

5. Uchburchak tomonlari 13, 14, 15 ga teng. Shu uchburchak barcha balandliklarining uzunliklari yig'indisini toping.

35-bilet

1. Maosh ikki marta ketma – ket bir xil (foizlarda) oshirilgach 1,44 marta ortdi. Maosh har gal necha foizdan oshirilgan.

2. Tengsizlikni yeching:
$$\frac{|x-3|}{x^2-5x+6} \geq 2$$

3. 1; -2; 4; -8 geometrik progressiyaning 11- hadini va 6 ta hadi yig'indisini toping.

4. Rombni ta'riflang. Romb diagonallari xossasi haqidagi teoremani isbotlang.

5. vatar aylanani 11 : 7 nisbatda bo'ladi. Shu vatarda tiralgan ichki chizilgan burchaklardan kichigining gradus o'lchovini toping

36-bilet

1. Mahsulotning narxi dastlab 20 % ga oshirildi, so'ngra 20 % ga kamaytirildi. Dastlabki narxi necha foizga o'zgargan ?

2. $x^2+5y^2-4xy+2x-6y+2,5 > 0$ tengsizlik x va y ning ixtiyoriy qiymatlarida o'rinli ekanligini isbotlang.

3. $(x^{-1} + y^{-1}) \cdot \frac{x^3 y^3}{(x+y)^3}$ ni soddalashtiring.

4. Uchburchak o'rtta chizig'ini ta'riflang. Uchburchak o'rtta chizig'I xossasini isbotlang.

5. Tengyonli trapetsiya asoslari 6 va 10, diagonali 10 ga teng. Trapetsiyaning yuzini toping.

37-bilet

1. Fermada tovuqlar va quyonlarning umumiy soni 1000 ta, oyoqlarining soni 3150 ta. Fermada nechta tovuq va nechta quyon.

2. Geometrik progressiyada $b_1 + b_5 = 17$, $b_2 + b_6 = 34$, b_1 ni toping.

3. Hisoblang. $\frac{4^{\frac{2}{3}} \cdot 40^{\frac{1}{3}}}{10^{\frac{-2}{3}}}$

4. Uchburchak ichki burchagi bissektrisasining xossasini ta'riflang va isbotlang.

5. To'g'ri to'rtburchakning diagonali 13 sm, qo'shni tomonlari 7 sm. Shu to'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.

38-bilet

1. Uchta ketma – ket natural sonlar yig'indisi ularning eng kichigidan 13 ga o'triq. Shu sonlarni toping.

